



## XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QITUVCHILAR MEHNAT FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

**Pirnazarov Xayrulla Salim o'g'li**

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

xalq ta'limi bo'limi mudir o'rinsbosi

O'zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot  
va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi  
biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7137549>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> October 2022

Online: 03<sup>rd</sup> October 2022

### KEY WORDS

*xalq ta'limi, umumiy o'rta ta'lim, islohotlar, pedagog kadrlar, mehnat faoliyatini baholash.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimi va unda faoliyat olib boruvchi pedagoglarning mehnatini baholash va uning samaradorligini oshirish borasida fikr-mulohazalar va tahliliy ma'lumotlar jamlangan bo'lib, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar ham xulosalangan.*

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Albatta, mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha

hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar e'tiborga molik. Lekin shunga qaramay, sifat borasida o'zgarishlar hali-hamon sezilmayapti. Demak, endi oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari, mutaxassisliklarni hududlar, sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari sohadagi 4 ta ustuvor vazifani ko'rsatib o'tdi. Birinchisi oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish bo'lsa, ikkinchisi o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratishdir. O'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish hamda professoro'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani



raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagoglar mehnatini baholash va ularning ish samaradorligini oshirishda davlat dasturiga kiritilgan alohida tamoyillar asosida ish olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Respublikamizda o'quvchilar bilmini baholash xalqaro dasturlarining (PIRLS, PISA, TIMSS ) joriy qilinishi milliy ta'lim tizimi sohasidagi katta yutuqlardan biri bo'ldi.

O'quvchilarni mazkur dasturlar talablari asosida tayyorlash maqsadida "Milliy dastur" va u asosida darsliklar yaratilib amaliyotga joriy qilinmoqda. Xalq ta'limi sihasidagi o'zgarishlar mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim o'quv me'yoriy hujjatlarida, ta'limni tashkil etish mazmuni va shakllarida yangilanishni taqozo etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy ta'lim dargohida o'qishlari jarayonida o'quvchilar bilmini baholash xalqaro dasturlari PIRLS, PISA TIMSSning talablarni o'zlari bajara olishni va ayni vaqtda dastur mohiyati hamda talablarini o'quvchilarga singdirish, dastur asosida ishlash metod va usullarini ham o'rganadi. Kuzatishlarimiz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda oliy ta'limda ona tilidan amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan Venn diagrammasi, "Aqliy hujum", klaster, Blits, muammoli izlanish, taqdimot metodlari, turli shakldagi testlardan foydalanish talabalarning bilimlarni chuqur

o'zlashtirishlarida, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatishda samarali natijalar berishini ko'rsatdi.

Albatta yuqorida ularning faoliyatiga qo'yiladigan talablar haqida so'z yuritgan edik. Ushbu jarayonda ,samarali mehnatning natijasi va uni etirof etish masalalari ham muhimdir.

Taraqqiyot strategiyasining 42-masadda 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish, milliy o'quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish, Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish, umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish borasida vazifalar ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini malaka toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda oshirib borish, o'qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish borasida ham aniq vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekistonning ta'lim va intellektual rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoda eng yuqori reytingga ega 30 ta davlat qatoridan joy olishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada ta'limtarbiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, Ta'lim to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, unda ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, faoliyatini baholash



metodologiyalarini joriy etish hamda oliy ta'limda moliyaviy mustaqillikni belgilab beruvchi qoidalarni bayon etishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Xulosa o'rnida aytganda, oliy ta'lim mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan muhim omildir. Jamiyatda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi. Ta'lim sifati rivojlansa, har bir sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi

## NATIJALAR

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadlarida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, o'quvchilar bilimini xalqaro talab darajasiga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in Mathematics and Sciens Study) kabi baholash dasturlarini qo'llash rejalashtirilmoqda. Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi YUNISEF bilan hamkorlikda PISA talabi asosida umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish ustida ham ishlanmoqda. O'zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida umumiy o'rta ta'limni isloh qilish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning tub mohiyati haqida to'xtalib shunday degan edi: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz". Ushbu belgilangan vazifalar orasida umumiy o'rta ta'limni isloh qilish ham muhim o'rin tutar

edi. Ayniqsa iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish va ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Jahon raqobatiga bardosh beradigan, mamlakatimizning buyuk kelajagini yaratadigan va O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishda faollik ko'rsatadigan yosh kadrlarning oltin fondini yaratish umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilishning eng muhim vazifalaridan biri qilib belgilandi.

Prezident maktablari STEAM (Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan bo'ladi. Ya'ni, Prezident maktablarida yoshlarga matematika, fizika, kimyo, biologiya va axborot texnologiyalari hamda xorijiy tillar ilg'or ta'lim metodologiyalari asosida chuqur o'rgatiladi. Maktablarda ta'lim ingliz tilida olib boriladi. Maktab bitiruvchilariga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkonini beradigan xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi. O'zbekistonda ta'lim sifati jahon ta'lim standartlari bilan raqobatbardosh qilish va xalqaro hamkorlik borasidagi islohotlar umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Bir so'z bilan aytganda mamlakatimizda xalq talimi tizimida faoliyat olib boruvchi pedagog xodimlarning mehnat faoliyatini iqtisodiy va ilmiy jihatdan baholash bugun



jahon meyoriy talablariga mos tarzda tashkil etilmoqda. Albatta mehnatning samarasini oshirish va uni tahlil qilish oson ish emas, shu nuqtai nazarda sohada

malakali kadrkar va xorijiy tajriblarga bo'lgan ehtiyoj bugun harqachongidanda ko'proqdir.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash» to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
4. Kattalar ta'limi: tajriba va muammolar / ed. S.G.Vershlovskiy - Sankt-Peterburg: IVESEP "Bilim", 2002.-161p.
5. Kattalar va uzluksiz ta'lim bo'yicha qo'llanma /eds.LAWilson, ERHayes.-San-Fransisko: Jossey-Bass, 2009.-505p.
6. Knowles, MS Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti: Pedagogikadan Andragogikagacha (Rev.Ed.) /MSKnowles.-NY: Association Press.-2008.-400p.
7. Zmeev S.I. Andragogiya. Kattalar ta'limining nazariy asoslari /SI .Zmeev.-M., 2010.-198b.